QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.120

METAFORIK TAFAKKURNING KOGNITIV ASOSLARI INGLIZ MAQOLLARIDA

Sotimboyeva Shohsanam Doniyorjon qizi
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, magistrant.
e-mail: shoxsanam@5277gmail.com ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0322-9885

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada inson lingvistik madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan ingliz xalq maqollaridagi metaforik tafakkurning lingvokognitiv asoslari, ularning kontseptual modellashtirish tizimlari tizimli-semantik va diskursiv jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida maqollar shunchaki badiiy-tasviriy vosita emas, balki donor va qabul qiluvchi domenlar o‘rtasidagi faol zanjirni ta'minlovchi mental-kognitiv tuzilma ekanligi tahlil qilingan. Ingliz va o‘zbek tilshunoslik maktabining ilg‘or kognitiv nazariyalari asosida inson, vaqt, tabiat va hayot tushunchalarining metaforik xaritalanish prinsiplari aniqlangan hamda tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarni kognitiv aspektda tadqiq etish, lug‘atlarni kognitiv invariantlar bilan boyitish hamda chog‘ishtirma tilshunoslik darsliklari uchun material tanlash jarayoniga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *metaforik tafakkur, kognitiv tilshunoslik, kontseptual metafora, donor domen, qabul qiluvchi domen, ingliz maqollari, lingvokulturologiya, mental xarita, kognitiv model, muloqot tizimi.*

Аннотация. В данной научной статье в системно-семантическом и дискурсивном аспектах исследуются лингвокогнитивные основы метафорического мышления в английских народных пословицах, являющихся неотъемлемой частью лингвокультуры, а также системы их концептуального моделирования. В рамках исследования анализируется, что пословицы представляют собой не просто художественно-изобразительные средства, а ментально-когнитивные структуры, обеспечивающие активную взаимосвязь между доменом-донором и доменом-реципиентом. На основе передовых когнитивных теорий английской и узбекской лингвистических школ выявлены и систематизированы принципы метафорического картирования понятий человека, времени, природы и жизни. Результаты исследования могут быть использованы для изучения фразеологических единиц в когнитивном аспекте, обогащения словарей когнитивными инвариантами и отбора материалов для учебников по сопоставительному языкознанию.

Ключевые слова: *метафорическое мышление, когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, домен-донор, домен-реципиент, английские пословицы, лингвокультурология, ментальная карта, когнитивная модель, система коммуникации.*

Abstract. This scientific article examines, from systemic-semantic and discourse perspectives, the linguocognitive foundations of metaphorical thinking in English folk proverbs, which constitute an integral part of linguistic culture, alongside their conceptual modeling systems. The study explores proverbs not merely as artistic-figurative devices, but as mental-cognitive structures that sustain an active conceptual mapping between source and target domains. Based on prominent cognitive theories from Western and Uzbek linguistic traditions, the mapping principles of concepts such as human, time, nature, and life are identified and systemized. The findings can contribute to researching phraseological units within a cognitive dimension, enriching lexicographical resources with cognitive invariants, and selecting appropriate contextual materials for comparative linguistics textbooks.

Keywords: *metaphorical thinking, cognitive linguistics, conceptual metaphor, source domain, target domain, English proverbs, cultural linguistics, mental mapping, cognitive model, communication system.*

Kirish. Globallashuv sharoitida dunyo xalqlari madaniyati va lisoniy tafakkur tarzi muloqot munosabatlarining jadallashuvi natijasida yangicha kognitiv o‘lchovlar asosida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Chet tillarini, xususan, ingliz tili lisoniy tizimini mukammal o‘rganish va uning ichki qonuniyatlarini anglash faqatgina grammatik qoidalar yoki statik leksik qatlamni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi. Til tizimining asosi, millat falsafasi va milliy dunyoqarashini harakatga keltiruvchi bosh mexanizm bo‘lgan paremiologik birliklar, xususan, maqollar inson kognitiv faoliyatining eng oliy mahsulidir. Maqollarni an’anaviy ravishda oddiy frazeologik o‘xshatishlar yoki ritorik figuralar sifatida talqin qilish bugungi kun tilshunosligi talablariga to‘liq javob bera olmaydi [1,45-b.]. Zamonaviy lingvokognitologiyada maqollar inson metaforik tafakkurini, borliqni idrok etish va kognitiv tahlil qilish jarayonlarini ifodalovchi, jamiyatning real voqeligini aks ettiruvchi ko‘p tarmoqli kontseptual tuzilmalar sifatida talqin etilmoqda [2,33-b.].

Insonning kundalik tajribalari, hissiy-metoforik xaritalari, shuningdek, atrof-muhit bilan munosabatlari paremiologik tizimda donor va qabul qiluvchi domenlar zanjiri ko‘rinishida kodlanadi. Binobarin, metaforik tafakkur shunchaki nutq chiroyli bo‘lishi uchun xizmat qiladigan badiiy hodisa emas, u bevosita inson ongining real dunyoni mavhum kontseptlar vositasida tizimlashtiruvchi mental arxitekturasidir. Ingliz xalq maqollarining kognitiv asoslarini, ularning ichki tizimli qonuniyatlarini ochib berish chet tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda hamda tillararo konseptual xaritalash qoidalarini aniqlashda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Kognitiv tilshunoslik va uning tarkibiy qismi hisoblangan kontseptual metafora nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro miqyosda fan sifatida shakllana boshladi. Bu borada g‘arb dunyosida kognitiv metafora asoschilari hisoblangan G.Lakoff va M.Johnson inson tafakkurining konseptual

tizimi mohiyatan metaforik xarakterga ega ekanligini isbotlab berdilar [1,12-b.]. Ularning qarashlariga ko‘ra, inson mavhum tushunchalarni o‘zi his qila oladigan jismoniy dunyo ob’ektlari yordamida loyihalashtiradi va bu tizim paremiyalar tarkibida barqarorlashadi. Olim Z.Kovekses esa metaforaning madaniy integratsiyasi masalalarini tadqiq etib, metaforik tuzilmalarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlagan [2,35-b.].

O‘zbek tilshunosligi va lingvokulturologiya maktabida esa ushbu yo‘nalish professor N.Mahmudov tomonidan til va madaniyat mutanosibligi konsepsiyasi doirasida jiddiy tadqiq etilgan [3,8-b.]. N.Mahmudov til birliklarining milliy mentalitet va kognitiv tuzilmalar bilan uzviy bog‘liqligini ochib bergan bo‘lsa, professor H.Dadaboyev lisoniy tizimdagi derivatsion imkoniyatlar, atamalarning tizimli shakllanish tabiati va lisoniy tafakkur qonuniyatlarini tadqiq qilgan [4,84-b.]. So‘nggi yillarda o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan ham aynan maqollar va paremiologik diskursning kognitiv xususiyatlari keng o‘rganilmoqda. Xususan, J.Ibragimov leksik o‘zlashtirish va diskursning kognitiv ta'siri ustida ishlagan bo‘lsa [5,34-b.], N.Ashurova til iqtisodiyoti va tarkibiy qisqarishlarning kognitiv mezonlarini asoslagan [6,20-b.]. Shuningdek, G.A.Karimova va A.R.Solihov ingliz hamda o‘zbek maqollarida donolik tushunchasining metaforik modellarini yaratganlar [7,44-b.]. M.B.Yusupova va O.M.Toshmatovlarning ilmiy ishlarida esa maqollarning lingvokognitiv xaritalanishi va donor-qabul qiluvchi domenlararo aloqalar tizimi lisoniy dalillar vositasida mukammal tahlil qilingan [8,12-b;9,54-b.].

TAHLIL VA NATIJALAR. Kognitiv tilshunoslikning eng muhim yutuqlaridan biri shundaki, u metaforani inson miyasi va tafakkurining fundamental operativ birligi sifatida isbotladi. Ingliz paremiologik tizimini tahlil qilish jarayonida biz inson ongining mavhum hodisalarni konkretlashtirishga bo‘lgan umumiy intilishini kuzatdik. Maqollar tarkibidagi metaforik tafakkur asosan donor domen (source domain) elementlarini qabul qiluvchi domen (target domain) tarkibiga tizimli ravishda ko‘chirish, ya'ni xaritalash (mapping) qonuniyatiga tayanadi [1, 30-b.]. Ushbu jarayonda til egalari o‘zlarining kundalik empirik, jismoniy va hissiy tajribalaridan kelib chiqib, ijtimoiy munosabatlarni, ma’naviy qadriyatlarni va borliq falsafasini modellashtiradilar [2, 40-b.]. Biz ingliz paremiyalarini lingvokognitiv jihatdan tasniflash va tahlil qilish orqali fundamental konseptual metafora tizimini ajratib ko‘rsatdik.

1. Vaqt – iqtisodiy resurs / pul konseptual metaforik modeli Ingliz xalqining kundalik hayoti, ijtimoiy tuzilishi va pragmatik dunyoqarashida vaqt juda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv tafakkur doirasida vaqt kabi o‘ta mavhum, jismonan ushlab yoki ko‘rib bo‘lmaydigan hodisa moddiy boylik, resurs va aniq hisoblab bo‘ladigan qiymat sifatida tasavvur qilinadi [1, 35-b.]. Buning yaqqol misoli sifatida ingliz paremiologiyasida keng qo‘llaniladigan ***“Time is money” (Vaqt – pul)*** maqolini keltirishimiz mumkin. Bu yerda vaqt (qabul qiluvchi domen) pul va iqtisodiy boylik (donor domen) xususiyatlari orqali idrok etilmoqda. Inson ongi vaqtni shunchaki chiziqli muddat emas, balki sarflanadigan, tejaladigan, yo‘qotiladigan yoki intellektual sarmoya sifatida tikiladigan ob’ekt sifatida tushunadi [10, 58-b.].

Ushbu modelning semantik ko‘lamini yanada kengroq tahlil qilsak, ingliz tilida vaqt bilan bog‘liq boshqa maqollarda ham iqtisodiy terminologiya va tijoriy harakatlarning metaforik ko‘chishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Misol uchun: *“Procrastination is the thief of time” (Kechiktirish – vaqt o‘g‘risidir)* maqolida vaqt o‘g‘irlanishi mumkin bo‘lgan qimmatbaho mulk simvolida gavdalanmoqda yoki *“Time lost is never found again” (Yo‘qotilgan vaqt qaytib topilmaydi)* maqolida vaqt jismoniy yo‘qotiladigan buyum sifatida xaritalanadi. Bunday kognitiv modellar til o‘rganuvchilarda ingliz xalqining ijtimoiy-madaniy stereotiplarini va pragmatik fikrlash paradigmasini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi [6, 24-b.]. Bu o‘quvchilarda til birliklarini mexanik yodlash emas, balki konseptual darajada o‘zlashtirish imkonini beradi.


2. “Hayot – chiziqli harakat / sayohat” konseptual metaforik modeli Inson hayotining boshlanishi, rivojlanishi va yakunlanishi kabi biologik hamda ijtimoiy jarayonlar ingliz paremiologiyasida tizimli ravishda sayohat, jismoniy yo'l va chiziqli harakat konsepti orqali modellashtiriladi [2,45-b.]. Ushbu model doirasida inson – sayohatchi, hayotiy bosqichlar – yo'l yo'nalishlari, hayotdagi qiyinchiliklar va to'siqlar esa yo'ldagi dovonlar yoki tepaliklar shaklida xaritalanadi. Misol uchun: *“Life is not all beer and skittles” (Hayot faqat o'yin-kulgidan iborat emas)* yoki *“All roads lead to Rome” (Hamma yo'llar Rimga olib boradi)* kabi paremiyalarda inson faoliyati muayyan bir maqsadli harakat sathida tahlil qilinadi [13,48-b.]. Ushbu konsept doirasida yana bir mashhur paremiyani keltirish mumkin: *“Don't cross the bridge before you come to it” (Ko'prikka kelmasdan turib undan o'tishga harakat qilma).* Bu yerda hayotiy muammolar yo'ldagi ko'prik (donor domen) sifatida tasavvur qilinmoqda va inson ongi kelajakdagi mavhum tashvishlarni jismoniy harakat va makon orqali konseptuallashtirmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday maqollar talabalar nutqini o'stirishda, ularda hayotiy vaziyatlarni obrazli tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishda kuchli motivatsion turtki bo'ladi [5,38-b.]. Zero, til o'rganuvchi so'zlarni shunchaki kontekstdan tashqari emas, balki yaxlit bir kognitiv ssenariy (frame) asosida idrok etadi.

Shu kabi, ingliz paremiyalarida inson tabiatini hayvonot yoki o‘simlik olami orqali ifodalash – fitomorfik va antropotsentrik metaforik modellar tizimini yuzaga keltiradi. Misol uchun: *“An apple never falls far from the tree” (Olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi)* maqolida biologik donor domen inson munosabatlari va oilaviy kognitiv model tizimiga ko‘chiriladi. Bu kabi lingvokognitiv xususiyatlarni an’anaviy matnlar hamda metaforik xaritalangan paremiyalar misolida qiyosiy-metodik farqlovchi mezonlar modeli ko‘rinishida tizimlashtirish lingvodidaktik va ilmiy qiymat kasb etadi:

Kognitiv mezonlar	Metaforik paremiologik matnlar	An'anaviy chiziqli matnlar
Lisoniy tabiati	Dinamik metaforik tuzilishga ega, donor va qabul qiluvchi domenlar zanjiri nihoyatda faol [8,b.12].	Sun’iy grammatik qoidalarga asoslangan, ko‘chma ma’nolarga va invariantlarga boy emas.
Tafakkur uyg‘otish kuchi	Yuqori; insonda analogik fikrlash, madaniy	Past yoki o‘rtacha; asosan axborot uzatish va chiziqli

	assotsiatsiyalar va ruhiy-kognitiv tahlil uyg‘otadi [3,b.10].	muloqotni ta’minlash bilan cheklanadi.
Lisoniy tejamkorlik (Ellipsis)	Yuqori darajada; gap kontseptual jihatdan siqilgan, struktura ixcham, ma’noviy yuk juda katta [6,b.22].	Deyarli kuzatilmaydi; gaplar grammatik jihatdan to‘liq, akademik va chiziqli me'yorda bo‘ladi.
Madaniy-ijtimoiy sig‘imi	Til egalarining tarixiy munosabatlari va zamonaviy madaniy-mental voqeligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiradi.	Ko‘pincha umumlashtirilgan, neologizm va madaniy elementlardan holi kontentni beradi.

Jadval tahlilidan ko‘rinadiki, an’anaviy chiziqli matnlar ko‘p hollarda lisoniy ko‘chishlarsiz statik axborot bersa, metaforik paremiyalar inson kognitiv faolligini yuqori darajada ta’minlaydi. Professor N. Mahmudov qayd etganidek, til o‘rganish va dunyoni anglash shunchaki mexanik jarayon emas, balki chuqur ruhiy-madaniy ehtiyoj bo‘lganligi sababli [3,b.12], bunday kontseptual maqollar inson ichki mental olamini harakatlantiradi. Glottodidaktik va kognitiv modellashtirish prinsiplariga tayanadigan bo‘lsak, maqollardagi metaforik tafakkurni o‘rganish bosqichlari ham ma'lum bir ierarxik tizim zanjirini tashkil etishi lozim:



Ushbu loyihalashtirilgan uch bosqichli kognitiv zanjir modelining mohiyati shundan iboratki, birinchi bo‘g‘in (Pre-mapping) orqali inson tashqi dunyodagi moddiy voqealikni anglaydi. Masalan, ingliz madaniyatida “Don’t put all your eggs in one basket” (Hamma

tuxumlaringni bir savatga qo‘yma) maqolidagi tuxum va savat – bu ob’ektiv donor domendir. Ikkinchi bo‘g‘inda (Task-mapping) inson ongi ushbu ob'ektlar o‘rtasidagi munosabatni va xavf omilini tahlil qiladi. Uchinchi yakuniy bo‘g‘inda esa (Language-focus) ushbu munosabat mutlaqo mavhum sohaga, ya'ni hayotiy strategiya, moliya va tavakkalchilik kontseptlariga (qabul qiluvchi domen) muvaffaqiyatli ko‘chiriladi. Bu esa inson paremiologik tafakkurining konsept xaritasini hosil qiladi.

XULOSA. Ingliz paremiologik fondida metaforik tafakkurning kognitiv asoslarini, uning shakllanish mexanizmlari va lisoniy tabiatini tadqiq etish bo‘yicha olib borgan tizimli ilmiy izlanishlarimiz yakunida, bevosita shaxsiy kognitiv-semantik kuzatishlarimiz, lingvistik modellashtirish va empirik materiallar tahlili asosida bir qator fundamental xulosalarga keldik. Olib borgan tizimli-strukturaviy, diskursiv va lingvokognitiv tahlillarimiz shuni qat’iy ko‘rsatadiki, ingliz xalq maqollari shunchaki tilning sirtqi sathida namoyon bo‘luvchi ritorik bezak, stilistik tasvir yoki chiroyli iboralar yig‘indisi emas. Bizning ilmiy kuzatishlarimiz va tahliliy yondashuvlarimizga ko‘ra, paremiyalar – insonning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, ijtimoiy-madaniy xulosalari va borliqni anglash jarayonidagi kognitiv faoliyati natijasida shakllangan yaxlit, murakkab va ierarxik lisoniy-didaktik tizimdir. Maqollarning metaforik salohiyati an‘anaviy frazeologizmlar va individual-mualliflik metaforalaridan tubdan farq qilib, ularda jamoaviy ong va milliy mentalitetning kognitiv xaritalari muhrlanganligini ko‘rdik.

Tadqiqotimiz davomida inson tafakkurining vaqt, taqdir, do‘stlik, sevgi, hayot va o‘lim kabi mavhum hamda murakkab tushunchalarni idrok etish mexanizmini bevosita ingliz maqollari misolida tahlil qildik. Bizning tadqiqotimiz shuni isbotladiki, inson ongi mavhum tushunchalarni anglash va ularni tilda ifodalash uchun o‘zi kundalik hayotda jismoniy his qiladigan, tajribadan o‘tkazgan konkret ob'ektlar dunyosiga – ya’ni jismoniy makon, hayvonot olami, o‘simliklar dunyosi va mexanik harakatlar kabi aniq ob’ektiv sohalarga, ya'ni donor domenlarga tayanadi. Ingliz paremiologiyasida faol bo‘lgan tizimli modellar orqali inson ongi mavhum tushunchalarni konkret iqtisodiy yoki jismoniy birliklar vositasida tizimlashtirishini, ya'ni vaqtni moddiy boylik yoki hayotni chiziqli yo‘l shaklida konseptuallashtirishini ochib berdik. Izlanishlarimiz jarayonida ingliz maqollari tarkibidagi kognitiv metaforalarning kommunikativ va pragmatik imkoniyatlari bevosita donor domen va qabul qiluvchi domenlararo assotsiativ aloqalarning zichligi hamda til iqtisodiyoti tamoyillari bilan uzviy bog‘liqligini aniqladik. Tadqiqotchi sifatida shuni alohida ta‘kidlaymizki, ingliz paremiyalarida inson obrazini, uning xarakteri va ijtimoiy munosabatlarini fitomorfik va antropotsentrik modellar orqali xaritalash, til egalarining dunyoqarash stereotiplarini ochib beruvchi eng bosh mexanizm hisoblanadi. Biz taklif etgan kognitiv tahlil modeli doirasida maqollarni o‘rganish, talabalar va til o‘rganuvchilarda leksik birliklarni shunchaki mexanik yodlash yoki chiziqli tarjima qilish to‘sig‘ini butunlay sindirishini kuzatdik. Bu esa o‘quvchilarda real dunyo voqeligini obrazli va kognitiv idrok etish, matn osti ma'nolarni to‘g‘ri baholash hamda chet tilida erkin metaforik va konseptual muloqotga kirishish kompetensiyasini mukammal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, lingvistik tejamkorlik va kognitiv ellipsis hodisalari maqollar matnida o‘ta

zich joylashgan bo‘lib, ular axborot uzatish tezligini oshirish va ortiqcha lisoniy birliklardan voz kechgan holda maksimal semantik yukni tashishga moslashgan. Bu esa, o‘z navbatida, tilning ichki derivatsion imkoniyatlarini kengaytiradi va milliy tilshunosligimizda chog‘ishtirma-kognitiv tadqiqotlar uchun yangi metodologik ufqlar ochadi. Tadqiqotchi sifatidagi yakuniy ilmiy tavsiyamiz shundan iboratki, zamonaviy glottodidaktika, lingvodidaktika va oliy ta'lim tizimida an‘anaviy, faqat lug‘aviy tarjimaga yoki statik grammatik qoidalarga asoslangan chiziqli darslik konstruksiyalaridan bosqichma-bosqich voz kechish davr talabidir. O‘quv rejalari, filologik tadqiqotlar va darsliklar yaratish jarayonining markaziga zamonaviy kognitiv-metaforik va konseptual modellarni tizimli ravishda integratsiya qilish zarur. Ingliz va o‘zbek tillari kesimida ularning konseptual-semantik chegaralarini, milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini to‘g‘ri belgilash, qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya va paremiologiya sohalarini mutlaqo yangi intellektual va ilmiy-nazariy bosqichga olib chiqadi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff G, Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003.– P.12-45.

2. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – P. 33-51.

3. Mahmudov N. Til va madaniyat mutanosibligi masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 1. – B. 8-16.

4. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 84-96.

5. Ibragimov J. OAV matnlari diskursining lingvopragmatik va lingvodidaktik xususiyatlari // Chet tillarini o‘qitishning dolzarb muammolari. – Toshkent, 2024. – № 2. – B. 34-42.

6. Karimova G. A., Solihov A. R. Ingliz va o‘zbek maqollarida donolikning kognitiv modellari // Zamonaviy dunyoda ilm-fan va innovatsiyalar. – Farg‘ona, 2024. – № 5. – B. 44-48.

7. Yusupova M. B. Maqollarning lingvokognitiv aspektda o‘rganilishi: tahlil va munosabat // Lingvospektr. – Toshkent, 2025. – № 2. – B. 12-19.

8. Toshmatov O.M. Kognitiv metaforaning inson tafakkuridagi o‘rni va konseptual xaritasi // Filologiya integratsiyasi. – Samarqand, 2025. – № 3. – B. 54-61.

9. Alimova D.X. Kognitiv metafora sifatida toponimlar va makon konseptining strukturasi // O‘zbekistonda xorijiy tillar (Fledu.uz). – Toshkent, 2024. – № 1. – B. 22-29.

10. Azizova S.Sh. Ingliz va o‘zbek tillaridagi kognitiv metaforalar va ularning madaniy semantikaga ta’siri //Sharq tillarini o‘qitish metodikasi. – Buxoro, 2025. – № 4. – B. 42-49.

11. Umarov B.B. Semantic features of metaphors in English and Uzbek proverbs // Open Research Hub. – 2025. – Vol. 3, No. 11. – P. 45-53.

12. Nazarova M.J. Cognitive metaphorical models of the concept “Human” in proverbs // Journal of Philological Research. – Kokand, 2026. – Vol. 2, No. 3. – P. 25-32.

13. Sultonova F.A. Comparative analysis of metaphorical structures in proverbs and cultural linguistics // American Journal of Language and Literacy. – 2026. – Vol. 4, No. 2. – P. 104-112.